

PAPER

NUTQ FAOLIYATINING IKKI SHAKLI: YOZMA VA OG'ZAKI NUTQNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI, O'XSHASHLIGI VA FARQLI JIHATLARI

Yo'ldosheva Maftuna Islom qizi¹, *

¹Ichki Ishlar Vazirligi Sirdaryo akademik litseyi, ingliz tili bosh o'qituvchisi

* mmyoldoshevs@gmail.com

Abstract

Berilgan maqolada muallif yozma va og'zaki nutq tushunchalarini tahlil etgani holda, ularga qator olimlar tarafidan berilgan izohlarni ham keltirib o'tadi. Ushbu ikki nutq faoliyati turlarining o'ziga xos xususiyatlari, o'xshashliklari hamda farqli jihatlari asosli tarzda ko'rsatib berilgan bo'lib, ularning har ikkisi muhim ekanligi, birining o'rniga boshqasi teng va barqaror ishlatila olmasligi go'yasini ilgari suradi

Key words:

yozuv, yozma nutq, og'zaki nutq, so'zlovchi, olimlar, afzalliklari, muloqot, matn, ko'nikma.

Kirish

Jamiyatda yozuvning ilk paydo bo'lgan davrlari va uning aniq sanasi bugungi kungacha turli baxslarga sabab bo'lmoqda va olimlar yakdil qarorga kelishmagan desak mubolag'a bo'lmaydi. Xususan, AQSHning Texas universiteti arxeologi D.Sh.Besserat bundan 5000 yil ilgari yashagan xalq-shummerlar o'z yozuviga ega bo'lganini va bugungi yozuv ularning hisob tizimidan paydo bo'lganini ta'kidlaydi. R.Meadou esa 1999- yilda Xarappa vodiysidan topilgan va 5500 yil tarixga ega bo'lgan

yozuv namunalarini inson tarixidagi yozuvning dastlabki namualri deya, ular qadimgi Indus yozuviga o'xshashligini aytadi. Shu va boshqa qarashlar yozuv borasidagi baxsli vaziyatning davom etishiga sabab bo'lmoqda.

Dunyoda eng dastlabki yozuv yaratilgandan buyon qanchadan-qacha yozuv namunalari paydo bo'ldi va muloqot uchun xizmat qilgan bo'lsa, ulardan ba'zilar iste'moldan chiqib ham ketdi.

Eramizdan avvalgi IV asrda yashagan Platon yozuvning o'rnini o'g'aki nutqdan past baholagan. L.V. Sherba va G.Paul ham o'g'zaki tilning

Compiled on: December 16, 2025.

Copyright: ©2025 by the authors. Submitted to *Advances in Science and Humanities* for possible open access publication under the terms and conditions of the [Creative Commons Attribution \(CC BY\) 4.0 license](#).

ahamiyatini yuqori baholashgan.

XX asrning boshlaridagina tilshunoslida yozuvning o'ziga xos xususiyatlarino tadqiq etish boshlangan bo'lib, yozma va og'zaki tilning farqi ajratib ko'rsatila boshlagan.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya

Xorijiy davlatlarda va yurtimizda ham yozma va og'zaki nutqning farqli jihatlari, yozuvni o'qitishning bosqichlari borasida qator tadqiqotchilar va olimlar ish olib borgan bo'lib, ulardan J.Harmer, Z.Bobojonova, H.Alijagic, M.Miroljubov, N.D.Galskova, N.I.Geiz, T.A.Amirova, N.Vtorushina, F.Alimovlar yozma va og'zaki nutqning turli jihatlari va xarakteristikasini, ularning psixologik jihatdan tadqiqi L.Jalilova ishida, psixofiziologik xususiyatlari esa A.Luriya tarafidan o'rganilgan.

Mazkur maqolani tayyorlash jarayoni adabiyotlar to'plash, ularni saralash, qayta ko'rib chiqish, dastlabki qoralamani yaratish va yakuniy tahrirlash bosqichlaridan tashkil topdi.

Natijalar va muhokama

Og'zaki muloqot jarayoni odatda real vaqtda yoxud ayni damda sodir bo'lgan voqea-hodisalarning haqiqiy dunyoda og'zaki shaklda muloqot qilish natijasi o'laroq maydonga kelsa, yozma nutqni yaratishda yozuvchiga hamsuhbat doim ham kerak bo'lavermaydi. Inson o'zi istaganlarini qog'ozga tushirgani holda, yozayotgan matnining leksik, punktuatsion hamda imloviy jihatdan bexato bo'lishiga harakat qilib, ularni qayta-qayta tahrirlashi yoxud avvaloq bildirilgan fikrlarini o'chirib yuborishi ham mumkin. Ammo, biz bu holatni og'zaki muloqot jarayonida amalga oshira olmaymiz. Yozish va og'zaki nutqning paydo bo'lish jarayoni ham farqli kechadi. Xususan, so'zlashuvda fikrlar katta tezlikda so'zga aylanadi hamda muloqotdoshimizga yetib boradi. Ushbu muloqot tez sodir bo'lishi tufayli ham so'zlovchida takrorlash, ikkilanish, o'zgartirish va xato jummalarni tuzish holatlari tez-tez uchray turadi. Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdagi yozma nutqni tayyor maxsulot holatiga olib kelish ancha mashaqqatli va mehnatni talab qiladi. Yozma matnning so'nggi namunasi bir necha

qoralamalarning qayta ishlangan va qabul qilingan eng oxirgi variant sifatida maydonga chiqadi.

O'zaki muloqotda va yozuvda ishlatiladigan til materillari ham bir-biridan keskin farq qiladi. Jumladan, yozganimizda yozuvning ma'lum diskursiga amal qilgan holda, tipik konstriksiyalardan foydalanmiz. Og'zaki nutq jarayonini avvaldan bashorat qilish va yoxud ma'lum qat'iy qolibga bo'ysundirish deyarli imkonsiz. Ular o'rtasida farq to'g'rilik darajasi hamda yaxshi shakllanish holatlarida ham kuzatiladi. "Yozma matnlardan vaqt o'tishi bilan qayta foydalanish mumkin, ammo og'zaki nutq darhol aloqalar uchun xizmat qiladi",- deya hisoblaydi Z.Bobojonova.

Og'zaki muloqotda suhbatdoshimizdan darhol javob olish imkoni mavjudligi tufayli va ayni vaqtda yozma muloqotda javob olishimiz biroz vaqt talab qilganligi bois og'zaki til yozuvdan ustun sanaladi. H.Alijagic bu ikki nutq faoliyati turi bir-biri bilan chambarchas bog'langan ekanligini va o'tmishda og'zaki ifodalangan axborot va g'oyalarni yozma belgilar tizimi yordamida ifodalash vositasi sanalganini ta'kidlaydi. Shunday bo'lsada ba'zi olimlar og'zaki tilda yozma tilning ko'pgina qurilmalari o'z ekvivalentiga ega emasligini va yozma til yordamida turli imloviy o'zgartirishlar yordamida har xil so'zlarni yasash mumkinligi aytiladi.

Yozma muloqotning paydo bo'lishida grafik kanal, og'zaki muloqot jarayoni uchun esa akustik kanal muhim sanalishi, siganallar majmuasi orqali axborot almashinuvi sodir bo'lishi tufayli ham muloqotda ishtirok etuvchilar bu axborot kodlarini bilishlari kerakligini ta'kidlaydi L.Jalilova.

Barchamizga ma'lumki, ona tilini egallash erkin va spontan nutqdan boshlanib, bola maktabga borgandan keyin harflar bilan ongli tarzda tanishadi va ularni yozishni o'rganadi. Ammo chet tilini o'zlashtirish ko'pincha til hodisalarining ma'nosi, shakli va kommunikativ funksiyalarini anglashdan boshlanadi va erkin nutq bilan yakunlanadi. Bu - ushbu ikki nutq faoliyati turlarining qarma-qarshi yo'nalishda kechishini ko'rsatadi. Shunga qaramasdan yozma nutqning yaratilish jarayonidagi sun'iylik afzallikka o'tadi. Ya'ni, o'quvchi avvaldan o'ziga tanish bo'lgan jarayon orqali tilni o'zlashtirishi natijasida

grammatik, leksik, imloviy xatolarini anglashi va tuzatishi imkoni ham oshadi.

Yozma va og'zaki nutqning yana bir o'xshashligi tashqi ifodalangan va ichki talaffuz qilingan til shakllari o'rtasida o'zaro o'tishlarda ko'rilishi mumkin. Yana ham aniqroq qilib aytsak yozishda talaffuz orqali yoki ichki nutqda aytilgan so'zlarni ko'z bilan ko'rishimiz mumkin bo'lgan grafik timsollar yordamida ifodalangan so'zlarga o'tilish jarayoni deb olsak, og'zaki nutqda ichki so'zdan talaffuz qilingan so'zga o'tish jarayoni kechadi deydi Galskova va Gez.

T.Amirova yozma tilsiz hech bir jamiyatda og'zaki til mavjud bo'lmasligini ta'kidlanagani holda shunday fikrlarni ilgari suradi: "Ko'plab so'zlarning talaffuzi ularning yozilish shakliga bog'liq bo'ladi, ayrim so'zlar esa bevosita yozma matnlardan tanib olinadi. Yozuvsiz jamiyatlarda esa ushbu funktsiyani "protoog'zaki" yoki "protoso'zlashuv" tili bajaradi".

Yozuvda to'g'ridan-to'g'ri muloqot kechmasligi sababidan yozayotgan shaxs o'z fikrini to'g'ri ifodalash uchun qo'shimcha ma'lumotlar, izohlar, aniqlovchilardan keng foydalanadi. So'zlovchi esa fikrlarini bayon etish jarayonida to'xtab qolishi, improvizatsiya qilishi, fikrlarning mantiqiylikini yo'qotishi ham mumkin. Og'zaki nutqda paralingvistik vositalardan keng foydalaniladi, shu tufayli ham u yozma nutqqa qaraganda ekspressiv xarakterga ega. Yozma nutq jarayonida paralingvistik vositalardan foydalanish imkoni yo'qligi saabali leksik-grammatik ifoda vositalaridan ekng foydalaniladi. Grafik va orfografik ko'nikmalarni hosil qilmay turib yozma nutqni o'stirib bo'lmaydi. Og'zaki nutq esa yozma nutqsiz ham shakllanishi mumkin. Og'zaki nutqda ikkilanish, pauza, aytilgan fikrni qayta takrorlash va ayrim so'zlarning ko'p qaytarilish holatlari kuzatilishi mumkin. Yozma matn esa qisqaligi va ma'lumotga boyligi bilan ajralib turadi.

Ushbu muloqot turlarining qay biri muhimligiga kelsak, ularning har ikkisi ham o'ziga xos va zarur holatlarda muhim sanaladi va birining o'rnini boshqasi bilan to'ldirish imkonsiz. Agar yozuv ko'proq akadem dunyoda xizmat qilsa, og'zaki til kundalik hayotimizni osonlashtirishda muhim rol o'ynaydi. Shunday ekan, ushbu muloqot turining har ikkisini ham puxta o'rganish hamda to'g'ri

qo'llay olish ko'nikmalarini shakllantirish lozim.

Xulosa

Fikrimiz so'nggida shuni aytmoqchimizki, yozma va og'zaki nutq turlari o'zining tuzilishi, shakli, tanlangan til materiali, yaratiladigan makon va zamoniga ko'ra bir-biridan farq qiladi. Garchi ushu ikki nutq faoliyati turlari bizoz o'xshashlikka ega bo'lsa ham, ularning har ikkisi o'ziga xos xarakteristikasi va muhimligi bilan ajralib turadiki, ularning birini ikkinchisidan afzal qo'yib bo'lmaydi.

Adabioytlar ro'yxati

1. Jeremy Harmer. How to teach writing.- England, Pearson education limited 2014.- P.154.
2. Bobojonova Zarina. Differences between speech and writing. Eurasian journal of learning and academic teaching. Vol 13, April 2023.-P.76.
3. Hamza Alijagic. Differences Between Spoken and Written English Language;Second Language Learning; Language and Society.- Research Gate, August 2023.
4. L.J.Jalilova. Практическая методика обучения иностранному языку.-Вухоро, 2018.- C.140.
5. А. А. Миролюбов. Методика обучения иностранным языкам: традиции и современность.- Обнинск, 2010.-С.464
6. Гальскова Н.Д., Гез Н.И. Теория обучения иностранным языкам. Лингводидактика и методика учеб. пособие для студ. лингв. ун-тов и фак. ин. яз. высш. пед. учеб. Заведений,- М.: Издательский центр «Академия», 2006.-С.336.
7. Т.А.Амирова. Функциональная взаимосвязь письменного и звукового языка.- Москва, 1985.-С.286.
8. Вторушина Нина Юрьевна. Письмо и письменная речь в обучении иностранному языку, Альманах современной науки и образования, 2010. № 1 (32): в 2-х ч. Ч. II. С.

129-132.b-129 ISSN 1993-5552.(Адрес журна-
ла: www.gramota.net/editions/1.html; Адрес
статьи: www.gramota.net/materials/1/2010/1-2/46.html)

9. Алимов Фарҳод Шарабидинович- Инглиз
тилида ёзув компетенциясини шакл-
лантириш(нофилологик факультетлар
мисолида).Diss.-Toshkent,2018.-В.136.
10. [https://tarix.sinaps.uz/hodisa/qadimgi-
yozuvning-kelib-chiqishi/](https://tarix.sinaps.uz/hodisa/qadimgi-yozuvning-kelib-chiqishi/)